RKTUning Toshkent filiali bitiruvchilari uchun diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi

// 08 July 2024 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rktuning-toshkent-filiali-bitiruvchilari-uchun-diplom-topshi

D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahri filiali bitiruvchi talabalari uchun tantanali diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Marosimda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.b Timur Muxamedjanov, Rossiya Federatsiyasining O‘zbekistondagi elchixonasi 2-kotibi Ilya Matveyev, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori Fyodor Kolokolov, universitetning Toshkent shahridagi filiali ijrochi direktori Botir Nurmatov, mas’ullar, bitiruvchilar hamda ularning yaqinlari ishtirok etishdi.

D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti 1898-yili tashkil topgan - 120-yildan ortiq tarixga ega oliygoh. Universitet kimyo sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri sifatida jahon miqyosida e‘tirof etilgan. OTMning Toshkent shahridagi filiali 2021-yili tashkil etilgan.

2023-2024 o‘quv yilida 51 nafar talaba universitetni muvaffaqiyatli tamomladi va bugun ularga diplomlar tantanali ravishda topshirildi. Tadbirda mas’ullar va bitiruvchilarning ota-onalari ularni tabriklab, yoshlarni kelgusi ishlarida omad va zafarlar tiladi.

Jamoat ishlarida faol ishtirok etgan talabalarga faxriy yorliqlar taqdim etildi.

Uzkimyosanoat
им. Д.И. МЕНДЕЛЕЕВА
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat
ДИПЛОМ
БАКАЛАВРА
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati